


## ISTE'MOL BOZORI

(2019 yil yanvar-iyul oylari)


Viloyat bo`yicha joriy yilning yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 1584,8 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 10,0 %ga o`sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 206,7 mlrd. so`mni (o'sish sur`ati 2,2 b.%), kichik tadbirkorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 1378,1 mlrd. so`mni (o'sish sur`ati 2,2 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 144,2 mlrd. so`mni (o`tgan yilning shu davriga nisbatan 1,4 %ga ko'paygan) tashkil etdi.

### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd.so'm)




Chakana savdo tovar aylanmasida katta hajmga ega bo'lgan Guliston shahri (661,6 mlrd.so'm), Sirdaryo tumani (249,3 mlrd.so'm), Yangiyer shahri (140,1 mlrd.so'm), Mirzaobod tumani (135,1 mlrd.so'm), ijobiy tasirini ko'rsatmoqda.

### Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,2 b.% ga ko'paydi va 206,7 mlrd. so`mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 13,0 % ulushiga to`g`ri keladi.

Kichik tadbirdorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra 1378,1 mlrd. so`mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 2,2 % ga o`sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 87,0 % ga teng kelmoqda.

**Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi ulishi, (%)**


Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulishi 2015 yil yanvar-iyul oylari 89,9 % ni tashkil qilgan bo'sha 2019 yilga kelib kichik tadbirkorlikning ulishi 87,0 % ni tashkil qildi.

**Chakana savdo aylanmasida  
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulishi, (%)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Xovos t (99,3 %), Shirin sh (99,1 %), va Boyovut (98,2%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 13,0 % ni tashkil etib, eng katta ulush Guliston shahrida (25,4 %), Yangiyer shahri (8,0 %) va Sayxunobod tumani (5,1 %) kuzatildi.

### **Chakana savdo aylanmasi va kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasidagi hajmi**

	<b>Chakana savdo aylanmasi (mlrd.so'm)</b>	<b>O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da</b>	<b>Kichik tadbirkorlik (mlrd.so'm)</b>	<b>O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da</b>
<b>Sirdaryo viloyati</b>	1584,8	110,0	1378,1	102,2
Guliston sh.	661,6	120,7	493,6	102,4
Shirin sh	21,6	101,4	21,4	102,1
Yangiyer sh tumanlar:	140,1	104,7	129,0	101,4
Boyovut	76,5	100,6	75,1	102,6
Guliston	57,0	104,6	55,1	102,3
Mirzaobod	135,1	104,9	129,5	102,4
Oqoltin	75,2	103,2	73,2	101,3
Sardoba	63,9	104,3	62,2	102,1
Sayxunobod	49,2	101,7	46,7	102,3
Sirdaryo	249,3	103,3	237,3	102,1
Xovos	55,3	101,3	55,0	101,6

**Tuman va shaharlar kesimida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, yanvar-iyul oylari (%)**



2019 yil yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo`yicha aholi jon boshiga 1901,6 ming so`mni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 8,0 % ga ko`paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-iyul oylarida o`tgan yilga nisbatan o`rtacha jon boshiga tovarlar aylanmasining eng yuqori ko`rsatkichlari Guliston shahri (7399,9 ming so`m), Yangiyer shahri (3280,9 ming so`m) va Sirdaryo tumanida (1974,1 ming so`m) kuzatildi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo`yicha eng kam ko`rsatkichlar Xovos tumanida (588,1 ming.so`m), Boyovut tumani (598,9 ming.so`m) va Sayxunobod tumanida (647,0 ming so`m) qayd etilgan. Ushbu ko`rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko`rinish olgan:

### Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming. so`m	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>1901,6</b>	<b>108,0</b>
Guliston sh.	7399,9	119,4
Shirin sh	1163,3	100,9
Yangiyer sh	3280,9	102,5
tumanlar:		
Boyovut	598,9	98,8
Guliston	802,7	102,0
Mirzaobod	1886,1	102,6
Oqoltin	1471,0	101,6
Sardoba	985,2	102,3
Sayxunobod	647,0	100,0
Sirdaryo	1974,1	101,6
Xovos	588,1	99,6


Jumladan, 2019 yilning yanvar-iyul oylari chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,9 %ni tashkil etib, 30,2 mlrd. so`mga yetdi yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,8 % o'sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 100,0 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

**SIRDARYO VILOYATINING  
ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**  
*(2019 yil yanvar-iyul oylari)*

Yanvar-iyul oylari viloyat bo`yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 857,6 mlrd. so`mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 0,6 %ga tushdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub`ektlariga to`g`ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-iyul oylari yakunlariga ko`ra 522,8 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 3,6 %ga o`sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 61,0 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko`rsatkich boshqa tuman va shaharlar bilan taqqoslaganda, Yangiyer shahrida (100,0 %), Shirin shahrida (99,6 %) va Sirdaryo tumanida (87,4 %) yuqori bo`lgan.

**Yirik va kichik korxonalarning  
ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar 2019 yil yanvar-iyul oylari yakunlariga ko`ra, 334,8 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 6,4 %ga kamaydi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 39,0 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa tuman va shaharlar bilan taqqoslaganda, Sardoba tumanida (98,5 %), Boyovut tumanida (94,1 %) va Xovos tumanida (93,2 %) yuqori bo'lgan.

### Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	857,6	99,4	334,8	93,6	522,8	103,6
Guliston sh.	288,7	90,3	42,5	52,0	246,3	103,4
Shirin sh	0,4	102,2	0,0	26,3	0,4	103,3
Yangiyer sh tumanlar:	15,9	103,3	-	-	15,9	103,3
Boyovut	69,8	96,4	65,7	95,9	4,1	103,7
Guliston	21,9	100,3	14,6	99,2	7,2	102,5
Mirzaobod	54,5	115,9	15,1	162,6	39,4	104,4
Oqoltin	18,4	106,5	15,0	107,5	3,4	102,4
Sardoba	56,5	92,7	55,6	92,5	0,9	103,5
Sayxunobod	108,5	118,3	80,3	125,1	28,3	102,4
Sirdaryo	200,7	105,2	25,2	115,1	175,5	104,0
Xovos	22,3	90,1	20,8	89,2	1,5	104,3

### Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining ulishi, (%)



Ulgurji savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Guliston shahrida (33,7 %), Sirdaryo tumanida (23,4 %), Sayhunobod tumanida (12,7 %) qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi  
bo'limi  
Tel.:71-230-86-34